



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-12>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


<b>1. Садибекова Молдир Сеилхановна</b> СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙ «ГОСУДАРСТВЕННАЯ УСЛУГА» И «ПУБЛИЧНАЯ УСЛУГА» ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА.....	5
<b>2. Камалова Гулноза Абдубаситовна</b> КРУПНАЯ СДЕЛКА ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И ПРОБЛЕМЫ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	15
<b>3. Алиходжаев Комил Кадинович</b> АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	23
<b>4. Хакимова Камола Фаррух кизи</b> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТОВ И ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ УЗБЕКИСТАНА: БАЛАНС ЭФФЕКТИВНОСТИ И АДВОКАТСКОЙ ТАЙНЫ.....	32
<b>5. Сафаев Мансурбек Илхомжонович</b> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАВСИФИ.....	42
<b>6. Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</b> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY, KRIMINOLOGIK HAMDA TERGOV TAKTIKASI JIHATLARI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JK 176-MODDASI MISOLIDA).....	52
<b>7. Ergashev Xudoberdi Rahmatjon o'g'li</b> AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINI IJRO ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI.....	59
<b>8. Xolmirzayeva Shoxista Arziqul qizi</b> NOQONUNIY MIGRATSIYA VA TRANSMILLIY JINOYATCHILIK: XALQARO HUQUQIY NAMKORLIK MECHANIZMLARINING TAKOMILLASHUVI.....	66
<b>9. Тилеуов Еркинбай Муратбаевич</b> ЁШЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	75
<b>10. Ёкубжонов Алишер Шерзод ўғли</b> ПОНЯТИЕ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ И ВОПРОСЫ ЕЕ ОХРАНЫ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	86
<b>11. Зокиров Сардор Каримжонович</b> МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФУНКЦИИ ЗАЩИТЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВОСУДИЯ.....	95
<b>12. Нурматов Равшан Бегмаматович</b> ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ПРОБАЦИЯСИНИНГ МАЗМУН – МОҲИАТИ.....	102



**Ergashev Xudoberdi Raxmatjon o‘g‘li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti  
E-mail: ErgashevXudoberdi92@gmail.com

**AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINI IJRO ETISHNING TASHKILY-HUQUQIY MASALALARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI**

For citation: Ergashev Khudoberdi Rakhmatjon ugli. ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF ENFORCING THE SENTENCE OF CORRECTIONAL LABOR AND MEASURES TO INCREASE ITS EFFECTIVENESS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509251>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O‘zbekistonda axloq tuzatish ishlari jazosining huquqiy mohiyati va probatsiya organlari tomonidan ijro etilish amaliyoti tahlil qilinadi. Sud statistikasi asosida jazo qo‘llanishi ortib borayotgani va probatsiya xizmati yuklamasi oshayotgani ko‘rsatiladi. Asosiy muammo sifatida mahkumlarni ishga joylashtirishdagi to‘siqlar (ish o‘rinlari cheklanganligi, ish beruvchilar manfaatdor emasligi, uzoq hududlarda sharoit yo‘qligi) yoritiladi. Muammoni hal etish uchun korxonalarni rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi band qilganlarga mos ijro mexanizmini yaratish hamda ayrim holatlarda boshqa hududda ishlash imkonini qonunchilikda belgilash taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** axloq tuzatish ishlari, probatsiya bo‘linmasi, jinoyat-ijroiya huquqi, mehnatga majburiy jalb etish, soliq imtiyozlari, ish haqidan ushlab qolish, takroriy jinoyatchilik, ishga joylashtirish

**Эргашев Худоберди Рахматжон угли,**  
Докторант Ташкентского государственного юридического университета  
E-mail: ErgashevXudoberdi92@gmail.com

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛНЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В ВИДЕ ИСПРАВИТЕЛЬНЫХ РАБОТ И МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются правовая сущность наказания в виде исправительных работ в Узбекистане и практика его исполнения органами пробации. На основе данных судебной статистики показано, что применение данного вида наказания ежегодно возрастает, вследствие чего увеличивается нагрузка на сотрудников службы пробации. В качестве основной проблемы рассматриваются препятствия при трудоустройстве осуждённых (ограниченность рабочих мест, отсутствие заинтересованности работодателей, недостаточность условий в отдалённых районах). В целях её решения предлагается стимулировать предприятия, создать механизм исполнения наказания, адаптированный для

самозанятых лиц, а также закрепить в законодательстве возможность трудоустройства в другой местности в отдельных случаях.

**Ключевые слова:** исправительные работы, подразделение пробации, уголовно-исполнительное право, принудительное привлечение к труду, налоговые льготы, удержания из заработной платы, рецидивная преступность, трудоустройство.

**Ergashev Khudoberdi Rakhmatjon ugli,**

Doctoral Student at Tashkent State University of Law

E-mail: Ergashevkhudoberdi92@gmail.com

## ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF ENFORCING THE SENTENCE OF CORRECTIONAL LABOR AND MEASURES TO INCREASE ITS EFFECTIVENESS

### ANNOTATION

This article analyzes the legal nature of the sentence of correctional labor in Uzbekistan and the practice of its enforcement by probation authorities. Based on judicial statistics, it shows that the use of this punishment has been increasing and that the workload of the probation service has grown accordingly. As the main problem, the article highlights obstacles to employing convicted persons (a limited number of jobs, employers' lack of interest, and the absence of adequate conditions in remote areas). To address these issues, it proposes introducing incentives for enterprises, creating an enforcement mechanism suitable for self-employed persons, and, in certain cases, establishing in legislation the possibility for offenders to work in another area.

**Keywords:** correctional labor, probation unit, penal enforcement law, compulsory involvement in labor, tax incentives, wage deductions, repeat offending (recidivism), employment.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida probatsiya organlari faoliyatini jazoni ijro etish sohasidagi xalqaro hamda Yevropa standartlariga muvofiqlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur standartlar jazolarning qonuniy va samarali ijrosini ta'minlashda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning muhim o'rnini belgilab beradi. Shu munosabat bilan, jinoyat jazolari tizimini yanada takomillashtirish, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, mahkum shaxsining individual xususiyatlari, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirish zaruratidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyat jazolari, xususan, axloq tuzatish ishlari jazosini qo'llash doirasini kengaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi. Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi.[1]

Jinoyat kodeksi 46-moddasi 1-qismiga muvofiq axloq tuzatish ishlari mahkumni, albatta, mehnatga jalb etilishini talab etadi. Bu haqida fikr yuritganda, yana axloq tuzatish ishlarining mazmuniga to'xtalish, eng avvalo, u qaysi elementlardan tarkib topishiga e'tibor qaratish lozim. Bu borada P.G. Ponomaryevning quyidagi fikrlariga qo'shilish mumkin, ya'ni u jinoyat jazo sifatidagi axloq tuzatish ishlarining mazmuniga quyidagilarni kiritadi:

1. mehnatga majburiy jalb qilish;
2. asosiy ish joyiga ega bo'lmagan shaxslarni mehnatga jalb qilish;
3. jazoni mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi belgilagan joylarda, lekin mahkum yashaydigan hududda o'tash;
4. muayyan muddatga mehnatga jalb qilish;
5. ish haqining ma'lum ulushini davlat foydasiga undirish[2].

Bu jazo turi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar sonini kamaytirish maqsadida qo'llanadi hamda ko'pincha jinoyatni birinchi marta sodir etgan fuqarolarga ozodlikdan mahrum qilinmasdan tuzalish imkoniyatini beradi.

A.A. Ustinovning fikricha, mazkur jazoning aniq afzalliklari quyidagilardan iborat:

- mahkumning mehnat ko'nikmalarini saqlab qolish yoki rivojlantirish imkoniyati;
- davlat byudjetiga moliyaviy tushum ko'rinishidagi iqtisodiy foyda;
- mehnat intizomini shakllantirish va mustahkamlash;
- mahkumning ijtimoiy aloqalarini saqlab qolish, yaqinlari bilan muloqotda bo'lish, oila qurish, farzand tarbiyalash va ijtimoiylashuv jarayonida faol bo'lish imkoniyati;
- jinoyatchilik submadaniyatiga mansub shaxslarning salbiy ta'siridan himoyalanih;
- ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan ijtimoiy stigmaning (jamiyatda "jinoyatchi" sifatida qoralanishning) ancha past darajada bo'lishi [3].

Bunday muqobil jazo turi — axloq tuzatish ishlari — jinoiy-ijro siyosatining istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u insonparvarlik tamoyillariga uyg'un tarzda mos keladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu jazo turi O'zbekiston Respublikasida eng ko'p qo'llanadigan jazolardan biridir. Sud statistikasi ma'lumotlariga ko'ra: 2020-yilda 7722 kishi, 2021-yilda 12950 kishi, 2022-yilda 16897 kishi, 2023-yilda 15874 kishi, 2024-yilda esa 17390 kishiga sudlar tomonidan axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan[4]. Ushbu ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, yil sayin axloq tuzatish ishlari jazosining tayinlanishi ortib bormoqda. Bu esa Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining probatsiya xizmati xodimlariga bo'lgan yuklamaning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat probatsiya xizmatida bir qancha kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 26-moddasiga ko'ra, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi probatsiya bo'linmasi zimmasiga yuklanadi. Axloq tuzatish ishlari korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda o'taladi[5]. Lekin tashkilot va korxonalar bu kabi shaxslarni ishga olishdan yetarlicha manfaatdor emas, shu sababli topilgan ish joylari odatda kam haq to'lanadigan bo'ladi. Shunday qilib, mahkumlarni mehnatga jalb etish probatsiya xizmati faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu holat amaldagi tashkiliy va huquqiy tizimning yetarli darajada samarali emasligi bilan izohlanadi. Ish joyining yo'qligi, tirikchilik uchun mablag'ning yetishmasligi, sud tomonidan yuklatilgan majburiyatni bajarish va yetkazilgan moddiy zararni qoplash imkonining yo'qligi, aliment va soliqlarni to'lash zarurati — bular yangi jinoyatlarning sodir etilishiga olib keluvchi asosiy sabablar hisoblanadi.

Ko'p holatda korxonalar rahbarlari axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ishga olishmaslikka intilishadi. Buning sababi ularda kadr yetishmovchiligi bilan muammolar mavjud emas va ko'p hollarda kerakli malakaga ega bo'lmagan, ishga salbiy munosabatda bo'ladigan shaxslarni ishga joylashtirishda manfaatdor emaslar. Shuningdek, tashkilot rahbariyati bunday hollarda qo'shimcha majburiyatlarni bajarishi kerak bo'ladi, ularni bajarmaganlik uchun esa qonuniy javobgarlik nazarda tutilgan.

Jazo ijrosini ta'minlash hamda uning samaradorligini oshirish uchun ushbu muassasa va korxonalariga soliq imtiyozlari berish, bu orqali axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ishga jalb qilishdan manfaatdor qilish bu kabi muammolar uchun yaxshi yechim hisoblanadi. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar ham axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilinsa, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga ishga joylashtirilishi zarur, bu esa o'z kasbi bilan daromad topayotgan shaxslar uchun noqulaylik keltirib chiqarmoqda, bu esa qonunda shu kabi shaxslarga o'z ishlarini davom ettirgan holda jazoni o'tash imkoniyati yaratilishi zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu jazo turiga hukm qilinganlar ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, ularni tarbiyalashda mahkum jazoni o'tayotgan korxonalar ma'muriyati va mehnat jamoalari qatnashadilar. Agar mahkum jazoni o'tash uchun o'z ish joyida qoldirilgan bo'lsa, oilalar ham uni tarbiyalashda bevosita qatnashadi.

Bu jazoning g'oyat muhim tomoni shundaki, mahkum jazoni o'tash uchun o'z ish joyida qoldirilgan bo'lsa, kasbini o'zgartirishga va yangi kasbni o'rganishga to'g'ri kelmaydi. Bu bilan u kasbi bilan bog'liq bo'lgan bilim va mahoratini esidan chiqarib qo'ymaydi, balki yanada rivojlantiradi[6].

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tab bo'lgan shaxslar tomonidan yana qayta jinoyat sodir etish holatlari ko'payib bormoqda, bu esa ushbu jazoga nisbatan shaxslar tomonidan nopisandlik bilan munosabatda bo'linayotganligini ko'rsatadi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun sud ushbu jazo turiga qo'shimcha majburiyatlarni yuklay olishi zarur: muayyan joylarga bormaslik;

ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik;

muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;

muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik;

transport vositasini boshqarmaslik;

muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik;

aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik;

alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik.

Ayni vaqtda bu majburiyatlar faqat ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslargagina qo'llanishi mumkin, ammo sodir etilgan jinoyatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan shaxslarga bu majburiyatlarning yuklanishi ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, respublika qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi[1].

Shunga ko'ra, ayrim, ayniqsa, uzoq hududlarda korxonalar yoki tashkilotlarning yo'qligi sud qarorini deyarli ijro etib bo'lmas holga keltiradi. Bunday joylarda istiqomat qilayotgan shaxs boshqa hududda mustaqil ish topish imkoniga ega emas, chunki bu masala qonunchilikda nazarda tutilmagan, shuning uchun mahkum o'zining ishlash huquqidan foydalana olmaydi.

M.V. Arzamastsevning fikriga ko'ra, doimiy ish joyiga ega bo'lish jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy reabilitatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7]. Agar u ish bilan ta'minlangan bo'lsa, u o'ziga va oilasiga munosib hayot sharoitini yarata oladi, sud tomonidan belgilangan moliyaviy majburiyatlarni bajara oladi, mehnat ko'nikmalari rivojlanadi hamda bu holat uning qayta jinoyat sodir etishining oldini oladi.

Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan, ammo o'z yashash joyida ish topa olmagan shaxslarga probatsiya bo'linmasi bilan kelishgan holda boshqa hududda mustaqil ish topish imkonini berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu tufayli Jinoyat-ijroiya kodeksining 26-moddasi 5-qismiga quyidagicha o'zgartirish kiritish zarur:

“Jazoni boshqa joylarda o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar probatsiya bo'linmasi belgilab beradigan korxonalar, muassasa va tashkilotlarga yuborilishi yoki yashash joyida yoxud yashash joyidan tashqarida (agar u sud hukmi chiqarilgandan so'ng mustaqil ish topgan bo'lsa, lekin probatsiya bo'linmasi bilan kelishilgan holda) axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashi mumkin”.

Yuridik adabiyotlarda axloq tuzatish ishlari jazosi ijrosining shartlarini turli mezonlar asosida tasniflashga doir yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.T. Potemkina axloq tuzatish ishlari jazoni o'tash shartlarini ikki asosiy guruhga — taqiqlar va majburiyatlarga ajratishni taklif etadi. Uning fikricha, taqiqlar axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan cheklavlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, mahkumlar zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar qatoriga mehnat faoliyatiga vijdonan munosabatda bo'lish, jazoni ijro etish inspeksiyasining chaqiruviga asosan belgilangan vaqtda hozir bo'lish, shuningdek, inspeksiya organlarida ro'yxatdan o'tish maqsadida oyiga ikki martagacha kelib turish kabi talablar kiritiladi[8].

O.B. Lisyagin axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash shartlarini umumiy va alohida turlarga ajratishni taklif etadi. Tadqiqotchiga ko'ra, umumiy shartlar qatoriga mahkumning jazoni o'tash

tartib-qoidalariga rioya etishi hamda mehnat faoliyatiga vijdonan munosabatda bo'lish majburiyatlari kiradi.

Shu bilan birga, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni o'tashning alohida shartlari sifatida jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan mahkumga nisbatan belgilangan majburiyat va cheklovlar ko'rsatiladi. Jumladan, mahkumning ish haqidan belgilangan miqdorda ushlab qolish, shuningdek mahkumni o'z arizasiga ko'ra ish joyidan bo'shatishni taqiqlash kabi talablar ushbu shartlar tarkibiga kiritiladi[9].

V.N. Orlov axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash shartlarini odatdagi va qat'iy shartlarga ajratadi, odatdagi shartlarni esa, o'z navbatida, asosiy va ikkinchi darajali shartlarga bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni o'tashning odatdagi shartlari qatoriga mahkumning jazoni o'tash tartib-qoidalariga rioya etishi hamda mehnat faoliyatiga vijdonan munosabatda bo'lish majburiyatlari kiradi.

Qat'iy shartlar esa jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan mahkum uchun belgilangan majburiyat va taqiqlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, muayyan hollarda mahkumning ish haqidan ushlab qolish choralarini qo'llash, mahkumni o'z xohishiga ko'ra ish joyidan bo'shatishni cheklash, yashash yoki ish joyidagi o'zgarishlar to'g'risida jazolarni ijro etish inspeksiyasini xabardor qilish majburiyati shular jumlasidandir.

Muallif odatdagi shartlarning asosiy guruhiga har bir holatda qo'llaniladigan talablarni kiritadi. Masalan, ish haqidan ushlab qolish, mahkumning o'z tashabbusiga ko'ra ish joyidan bo'shatilishini taqiqlash, yashash yoki ish joyi o'zgarigan taqdirda bu haqda jazolarni ijro etish inspeksiyasiga xabar berish majburiyati shular sirasiga kiradi.

Odatdagi shartlarning ikkinchi darajali guruhiga esa muallif mahkumning mustaqil ravishda ishga joylashishi yoki bandlik xizmatlari organlarida ro'yxatdan o'tishi, bandlik xizmatlari tomonidan taklif etilgan ish yoki kasbiy tayyorgarlikdan asossiz ravishda bosh tortmaslik, shuningdek vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatida nafaqadan ushlab qolish choralarini qo'llash kabi talablarni kiritadi[10].

Axloq tuzatish ishlari jazoni o'tash shartlarini tasniflashda V.N.Orlov tomonidan taklif etilgan yondashuv mavjud tasniflar orasida eng mukammallaridan biri hisoblanadi. Chunki mazkur tasnif axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashning asosiy va amaliy jihatlarini keng qamrab oladi hamda ushbu jazoning ijro etilish xususiyatlarini to'liqroq yoritishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, biz axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni o'tash shartlarini ularning vujudga kelish sabablariga ko'ra asosiy, ikkinchi darajali hamda alohida shartlarga ajratishni maqsadga muvofiq.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash jarayonida asosiy shartlarga rioya etish majburiy hisoblanadi. Ikkinchi darajali shartlarning yuzaga kelishi esa axloq tuzatish ishlari davrida mahkumni tavsiflovchi holatlar hamda uning xulq-atvori bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Jumladan, agar mahkum axloq tuzatish ishlari jazoni o'tash tartibiga rioya qilsa, ish joyida va ijtimoiy muhitda ijobiy tavsiflansa, mazkur shartlarning amalda vujudga kelmasligi ham mumkin.

Alohida shartlar o'z mazmuniga ko'ra asosiy shartlar sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning yuzaga kelishi turli omillar bilan belgilanadi. Bunday omillar qatoriga mahkumning yashash yoki ish joyini o'zgartirishi, sog'lig'ining yomonlashuvi, shuningdek axloq tuzatish ishlari jazosining nisbatan qisqa muddatga tayinlanishi va boshqa holatlar kiradi.

Masalan, axloq tuzatish ishlari jazosi davomida mahkumga u ishlayotgan tashkilot ma'muriyati tomonidan, jazolarni ijro etish inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, 18 ish kunidan iborat yillik mehnat ta'tili berilishi mumkin. Mazmunan olganda, bu holat asosiy shart sifatida baholanadi. Biroq axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo sud tomonidan qisqa muddatga, ya'ni olti oygacha tayinlangan taqdirda, jazoni o'tash davrida mazkur shartning yuzaga kelmasligi ehtimoli ham mavjud.

Shunday ekan, axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashning asosiy shartlari sifatida quyidagilar belgilanadi: mahkumning mehnat faoliyatiga vijdonan yondashish majburiyati; jazoni ijro etish organlari tomonidan chaqirilgan taqdirda, belgilangan vaqtda inspeksiya xodimlari huzurida hozir

bo‘lish majburiyati; shuningdek, sud hukmida ko‘rsatilgan miqdorda ish haqidan ushlab qolinadigan summaning undirilishi.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish jarayonida qo‘llanadigan ikkinchi darajali shartlar jumlasiga esa mahkumning jazoni ijro etish inspeksiyasida ro‘yxatdan o‘tish hamda har oyda kamida ikki marotaba ushbu organlarga kelib turish majburiyati kiradi.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o‘tashning alohida shartlari qatoriga bir qator maxsus talab va cheklovlarni kiritish mumkin. Jumladan, jazolarni ijro etish inspeksiyasining yozma ruxsatisiz mahkumni o‘z arizasiga ko‘ra ish joyidan bo‘shatishni taqiqlash, mahkumning ish joyi yoki yashash manzili o‘zgarganligi haqida o‘n kun muddat ichida jazolarni ijro etish inspeksiyasini xabardor qilish majburiyati shular jumlasidandir.

Shuningdek, mahkumning o‘ziga taklif etilgan ish yoki kasbiy tayyorgarlikdan asossiz ravishda bosh tortish huquqidan mahrum etilishi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatida to‘lanadigan nafaqadan sud hukmi bilan belgilangan ish haqidan ushlab qolish miqdoriga muvofiq ravishda chegirma qilinishi ham alohida shartlar tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, axloq tuzatish ishlari jazosi davomida mahkumga u ishlayotgan tashkilot ma‘muriyati tomonidan jazolarni ijro etish inspeksiyasi bilan kelishilgan holda o‘n sakkiz ish kunidan iborat yillik haq to‘lanadigan mehnat ta‘tili berilishi mumkin.

Mahkumning ish haqidan ushlab qolish chorasi axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni o‘tashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mahkumni ishga joylashtirishdan keyingi bosqichda qo‘llaniladigan asosiy shartlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida axloq tuzatish ishlari jazosining huquqiy mohiyati, qo‘llanish dinamikasi va ijro etilishidagi amaliy muammolar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu jazo ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan insonparvar va ijtimoiy jihatdan foydali bo‘lib, mahkumning mehnat ko‘nikmalarini saqlash, ijtimoiy aloqalarini uzmaslik hamda davlat daromadiga tushum ta‘minlash imkonini beradi. Biroq jazo ijrosining samaradorligi ko‘p jihatdan mahkumni ish bilan ta‘minlash masalasiga bog‘liq: korxonalar va tashkilotlarning manfaatdor emasligi, ish o‘rinlari cheklanganligi, uzoq hududlarda ish joylarining yo‘qligi hamda shartnomaviy tartibning murakkabligi qayta jinoyatchilik xavfini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun korxonalarni rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi band qilganlar uchun mos huquqiy mexanizm yaratish, zaruratda probatsiya bilan kelishgan holda boshqa hududda ishlash imkonini belgilash, shuningdek nazorat va tarbiyaviy ta‘sirni kuchaytiruvchi qo‘shimcha majburiyatlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2022 (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. – T.: Adolat, 2022)
2. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. / Под ред. А.И. Рапога. – М.: Проспект, 2004. – С. 92. (Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation. Edited by A.I. Rarog. – M.: Prospect, 2004. – P. 92.)
3. Ustinov A.A. Punishments in the form of compulsory work and correctional work: problems of legal regulation. In: IV Mezhdunarodnyi penitentsiarnyi forum “Prestuplenie, nakazanie, ispravlenie” (k 140-letiyu ugovovno-ispolnitel‘noi sistemy Rossi 85-letiyu Akademii FSIN Rossii): sbornik tezisov vystuplenii i dokladov uchastnikov (g. Ryazan‘, 20–22 noyabrya 2019 g.) [4th international penitentiary forum “Crime, punishment, correction” (to the 140th anniversary of the penal system of Russia and the 85th anniversary of the Academy of the Federal Penitentiary Service of Russia): collection of abstracts of speeches and reports of participants (Ryazan, November 20–22, 2019).]. In 10 volumes. Volume 3. Ryazan: Akademiya FSIN Rossii, 2019. Pp. 338–343. (In Russ.)
4. <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T.: Adolat, 2022. (Penal Enforcement Code of the Republic of Uzbekistan. – T.: Adolat, 2022.)

6. Abdurasulova K.R., Turg'unboev E.O., Salaev N.S. Jarima va axloq tuzatish ishlari jazolari: jinoyat-huquqiy va jinoyat-ijroiya huquqiy jihatlar. Monografiya. Mas'ul muharrir: y.f.d., prof. B.J. Axrarov. – Toshkent: TDYU, 2016. – 144 bet. (Abdurasulova K.R., Turgunbaev E.O., Salaev N.S. Fines and correctional labor punishments: criminal-legal and criminal-executive legal aspects. Monograph. Responsible editor: Doctor of Laws, prof. B.J. Akhrarov. – Tashkent: TDYU, 2016. – 144 pages.)
7. Arzamastsev M.V. Determining the place of execution of custodial sentences. Ugolovnoe pravo=Criminal Law, 2010, no. 4, pp. 4–7. (In Russ.)
8. Потемкина А.Т. Условия исполнения исправительных работ без лишения свободы: Учебное пособие. – М., 2009. – С. 25. (Potemkina A.T. Conditions of serving correctional labor without deprivation of liberty: Study guide. – М., 2009. – P. 25.)
9. Лисягин О.Б. Правовое регулирование наказания в форме исправительно-трудового труда в новых социально-экономических условиях // Правовое и методическое обеспечение исполнения уголовных наказаний: Сборник научных трудов. - М., 2004. - С. 56-57. (Lisyagin O.B. Legal regulation of punishment in the form of correctional labor in the new socio-economic conditions // Legal and methodological support for the execution of criminal punishments: Collection of scientific works. - М., 2004. - P. 56-57)
10. Orlov V.N. Problems of appointment and execution of correctional labor: Diss. ... Cand. of Law. – Stavropol, 2000. – P. 106. (Орлов В.Н. Проблемы назначения и исполнения исправительных работ: Дисс. ... Кандидат юридических наук. – Ставрополь, 2000. – С. 106.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000